International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI: TALABALARDA IJTIMOIY MAS'ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

B. Ibragimov
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ijtimoiy mas'uliyat g'oyasi insoniyat sivilizatsiyasi va iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi bilan birgalikda shakllangan. Ushbu tushuncha tarixan turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, uning zamonaviy shakllanishiga bir qancha muqobil konsepsiyalar ta'sir ko'rsatgan. Talabalarning davlat va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro yondashuvlar turli mamlakatlarda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarga moslashgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar asosan ta'lim tizimida o'z ifodasini topib, talabalarning fuqarolik ongini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish va jamiyat farovonligiga qo'shadigan hissasini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: YuNESKO, BMT, yo'riqnoma, insoniyat sivilizatsiyasi, iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy mas'uliyat, falsafiy tamoyil.

Xalqaro jamiyatning yetuk tashkilotlari bilan birgalikda yoshlarning umumiy masalalariga doir ko'plab qonunlar hamda hujjatlar qabul qilingan. Masalan, oxirgi yigirma yil davomida YuNESKOning yoshlar masalalariga oid yuzdan ortiq qonun osti hujjatlami qabul qildi. BMT Bosh Assambleyasining ko'plab tartibdagi bir qator rezolyusiyalarida yosh avlodlar muammosiga ham asosiy masala sifatida to'xtaldi. BMTning yoshlar masalalari bag'ishlangan strategik tartibdagi hujjatlaridan eng muhim bo'lganhujjatlarini keltirib o'tamiz: BMTning "Yoshlarga oid siyosat va dasturlar" rezolyusiyalari va "Yoshlarga oid tegishli izchil chora-tadbirlarni uzoq muddatli rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha yo'riqnomalar". Talabalar uyushmalari va umuman talabalar harakati haqidagi hujjatlar bizning tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega [6].

Ijtimoiy mas'uliyat g'oyasi insoniyat sivilizatsiyasi va iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi bilan birgalikda shakllangan. Ushbu tushuncha tarixan turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, uning zamonaviy shakllanishiga bir qancha muqobil konsepsiyalar ta'sir ko'rsatgan. Talabalarning

davlat va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro yondashuvlar turli mamlakatlarda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarga moslashgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar asosan ta’lim tizimida o‘z ifodasini topib, talabalarning fuqarolik ongini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish va jamiyat farovonligiga qo‘shadigan hissasini oshirishga qaratilgan.

Ijtimoiy mas’uliyat dastlab jamiyat ichidagi barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan qadriyatlar va qoidalar majmuasi sifatida paydo bo‘lgan. Aristotel insoniyat jamiyatida moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashni axloqiy qadriyat sifatida e’tirof etgan. Bu fikr ijtimoiy mas’uliyatning ilk falsafiy tamoyillarini shakllantirgan. [1]

J. Makmillanning konsepsiyasiga ko‘ra, odamlar tabiiy ravishda boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishga qiziqmaydilar. Shu sababli, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish uchun maxsus mexanizmlar va rag‘batlantirish vositalarini joriy qilish zarur[5].

Ko‘plab davlatlar ta'lim tizimida fuqarolik ta'limi va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini integratsiyalash orqali yoshlarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratadi

Ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi XX asrning o‘rtalarida shakllana boshlagan bo‘lib, dastlab bu boradagi ilmiy qarashlar asosan AQShda rivojlandi. Keyinchalik, bu konsepsiya Evropada ham rasmiy tan olinib, rivojlanishga yo‘naltirilgan.

AQSHda xalqaro "Service Learning" modeli keng qo‘llaniladi. Bu model, odatda, talabalarni jamiyat muammolarini hal qilishga jalb qiluvchi o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu model talabalarni ijtimoiy loyihalarda faol qatnashishga undaydi, bu esa nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan boyitishga yordam beradi. Talabalar ta’lim olish bilan birga jamiyat uchun foydali xizmatlar ko‘rsatadilar, masalan, maktablar uchun bepul ta’lim dasturlari yaratish yoki ekologik loyihalarni amalga oshirish [3].

Finlandiya ta'limi dunyoda o‘zining yuqori sifatli va samarali yondashuvi bilan mashhur. Finlandiyada talabalarni fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu nafaqat o‘qitish jarayonida, balki talabalarning davlat va jamiyat bilan muloqoti orqali ham amalga oshiriladi. Finlandiya ta’lim tizimida fuqarolik ta’limi o‘quv dasturining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu fan orqali talabalarga quyidagilar o‘rgatiladi:

Demokratiya va siyosiy ishtirok. Talabalarga demokratik jarayonlar, saylov tizimi va fuqarolik huquqlari haqida tushunchalar beriladi. Ularning siyosiy ongini va ishtirokini shakllantirishga qaratilgan darslar o‘tkaziladi.

Inson huquqlari va adolat. Fuqarolik fanlarida inson huquqlari, adolat va qonun ustuvorligi masalalari ko‘rib chiqiladi. Talabalarga qanday qilib huquqlarini himoya qilish va adolatli jamiyat qurish yo‘llari o‘rgatiladi.

Barqaror rivojlanish va ekologik mas’uliyat. Barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat va atrof-muhitni saqlash masalalari ham muhim o‘rin tutadi. Talabalarga resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik yechimlar haqidagi ko‘nikmalar o‘rgatiladi.

Finlandiyada amaliy, ijtimoiy loyihalar orqali talabalarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish juda mashhur [Erasmus+ Loyihalari]. Bu talabalarni davlat va jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga bevosita jalb qilishga qaratilgan. Talabalar mahalliy maktablar, nogironlar uylarida yoki atrof-muhitni himoya qilish loyihalarida ishlashadi. Bu orqali yoshlar jamiyatdagi o‘z o‘rni va mas’uliyatini his qilishadi. Talabalar ixtiyoriy ravishda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish orqali mahalliy jamiyatga yordam beradi va ko‘ngillilik ko‘nikmalarini o‘rganadi.

Ko‘plab mamlakatlarda talabalarni ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etishga undovchi dasturlar mavjud. Yaponiya ta’lim tizimini xalqaro darajaga chiqishi va boshqa mamlakatlarni o’ziga sinov muddati bilan yo’lga qo’yishini bir necha misollar bilan keltirish mumkin. Xususan Yaponiya hukumati bu bilan to’xtalib qolmagan bo’lib, o’z ustida ishlashni, yangi loyihalar, ixtirolar, inovatsiyalar, rivojlangan xorijiy davlatlar bilan doimiy almashuv shartnomalar bilan

shug’ullanadi.

Yaponiyada boshlang‘ich va o‘rta maktab bosqichlarida talabalarga jamiyatga mas’uliyatni anglash va ijtimoiy mas’uliyatni o‘rgatish juda katta e’tibor qaratilgan. Ko‘ngillilik mashg‘ulotlari (Volunteering) maktablarda juda keng tarqalgan. Talabalar universitet hududlarini ekologik barqaror qilish loyihalarida ishtirok etadi, masalan, chiqindilarni qayta ishlash va energiyani tejash dasturlari. Yaponiyaning ta’lim tizimi talabalarning jamiyatdagi mas’uliyatini tarbiyalashga katta e’tibor qaratadi. Bu:

- ✓ Mahalliy jamiyatga ko‘ngillilik;
- ✓ Ekologik mas’uliyat va barqaror rivojlanish;
- ✓ Demokratiya va saylov jarayonlariga ishtirok kabi ko‘p ijtimoiy masalalarni o‘z ichiga oladi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi talabalarni ijtimoiy mas’uliyat, ko‘ngillilik va jamiyatga nisbatan mas’uliyat hissini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Janubiy Koreyada University Social Responsibility talabalarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish uchun juda muhim platforma hisoblanadi. Ushbu dastur universitet va mahalliy jamiyat o‘rtasida ko‘p muhim ko‘ngillilik loyihalari va ijtimoiy masalalarni hal qilishni ko‘zda tutadi. USR loyihalarining asosiy yo‘nalishlari: Mahalliy Jamiyatga Yordam Loyihalari. Talabalarning mahalliy jamiyatga bevosita yordam ko‘rsatish loyihalari. Masalan:

- ➢ Keksalarga yordam ko‘rsatish. Talabalardan mahalliy keksalarga yordam berish, ularning kundalik ehtiyojlarini qondirish, sog‘liqni saqlash xizmatlariga yordam ko‘rsatish loyihalarida ishtirok etish talab qilinadi.
- ➢ Bolalar uylarida ko‘ngillilik. Talabalardan bolalar uylari yoki mahalliy tarbiya markazlarida ko‘ngillilik faoliyatida ishtirok etish so‘raladi. Bu orqali yoshlar ko‘ngillilik, tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat va liderlik ko‘nikmalarini o‘rganishadi.

Ekologik Loyihalar va Barqaror Rivojlanish**. “**Green Campus**”** tashabbuslari.

- ➢ Talabalarning ekologik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun universitetlarda chiqindilarni qayta ishlash, suv va elektrni tejash, va atrof-muhitni saqlash loyihalari tashkil qilinadi.
- ➢ Mahalliy jamiyatlarda ekologik loyihalarda ishtirok qilish orqali resurslardan samarali foydalanish ko‘nikmalari o‘rgatiladi.

Janubiy Koreya universitetlarining Ko‘ngillilik va USR dasturlar, Koreyaning ko‘pgina universitetlari "USR Centers" tashkil qiladi. Ushbu markazlar universitet talabalari va mahalliy jamiyat o‘rtasida ko‘ngillilik ko‘nikmalarini tarbiyalaydigan va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni boshqaradi. Janubiy Koreyaning yirik universitetlari, masalan, Seoul milliy Universiteti**,** Korea Universiteti, va Yonsei Universiteti, ushbu dasturlarni ko‘p yillardan beri faol amalga oshiradilar.

Buyuk Britaniya ta’lim tizimi talabalarning ijtimoiy mas’uliyat va ko‘ngillilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratadi. Bu ko‘p jihatdan “Ko‘ngililik” kabi ijtimoiy dasturlar va amaliy loyihalar orqali amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyaning ko‘pgina universitetlari talabalarning ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratadi. Universitetdagi ijtimoiy mas’uliyat loyihalari: “Social Responsibility Initiatives”**:** Universitetlar talabalarning ko‘ngillilik amaliy loyihalariga ko‘magi sifatida universitet resurslarini va kampus imkoniyatlarini taqdim qiladi. Mahalliy tashkilotlari va universitetlar o‘rtasida ko‘pgina hamkorliklar tashkil etiladi. Global Loyihalar va Erasmus+ kabi.

- ➢ Buyuk Britaniya talabalari ko‘p xalqaro ko‘ngillilik dasturlarida ishtirok etishadi, masalan, Erasmus+ va boshqa global hamkorlik dasturlari.
- ➢ Bu dasturlar orqali talabalarning ijtimoiy mas’uliyat va global hamkorlik ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

“Global Citizen Initiative**”** – bu Avstraliyadagi universitet va maktablarda amalga oshirilayotgan global fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish dasturi bo‘lib, talabalarni global muammolarni hal qilishda faol ishtirokchi bo‘lishga tayyorlashni maqsad qiladi [4]. Quyida ularning mazmuni bo‘yicha batafsil izoh berilgan:

Global masalalarni anglash. Talabalarga iqlim o‘zgarishi, qochqinlar muammosi, oziq-ovqat xavfsizligi, suv tanqisligi va boshqa global muammolar haqida chuqur tushuncha berish.

Amaliy tajribani rivojlantirish. Talabalarning amaliy loyihalarda ishtirok etishi orqali mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va muammolarga yechim topish qobiliyatini rivojlantirish.

Jamiyatga ta’sir ko‘rsatish. Mahalliy va global hamjamiyatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalash.

Kanadada talabalarni iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashga jalb qilish bo‘yicha maxsus dasturlar "Climate Action Programs" (Iqlim Harakat Dasturlari) orqali amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar talabalarning ekologik mas’uliyatini oshirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini tarbiyalash va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Shuningdek, Kanadadagi Liderlikni rivojlantirish Dasturlari yoshlarni, jumladan talabalarni liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ko‘plab tashabbus va treninglarni o‘z ichiga oladi. Ushbu dasturlar turli sohalardagi liderlik ko‘nikmalarini oshirishni, jamoaviy boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishni va global muammolarga yechim topishda yetakchilik qilishni maqsad qiladi.

Xullas, xorijiy mamlakatlar, aynan AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Kanada va Avstraliya kabi mamlakatlarda talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish ko‘p yo‘nalishli va kompleks tarzda amalga oshiriladi. Bu loyihalar orqali talabalarga mas'uliyat ko‘nikmalari, ko‘ngillilik va ekologik mas'uliyatni anglash kabi ko‘p narsalar o‘rgatiladi. Bu esa kelajak avlodlarining ko‘proq empatik, mas'uliyatli va ekologik mas'uliyatga tayyor shaxs bo‘lib ulg'ayishiga yordam beradi. Jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, har bir o‘quvchining hayotiy sharoitlarini o‘zgartirib, zamonaviy ta’lim muassasalarining sotsiomadaniy muhitini ham yangilamoqda. Bu esa maktab o‘quvchilarida dunyoqarash shakllantirish bilan bir qatorda, talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. Nicomachean ethics 1999
2. Erasmus+ Loyihalari
3. Eyler, J. S., & Giles, D. E. (1999). Where's the Learning in Service-Learning?
4. https://www.afs.hk/en/gce-program/
5. Reinventing the bazaar: A natural history of markets, by John McMillan. New York: W. W. Norton, 2002
6. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: Darslik. 2-q. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. -304b.
7. Гурова, Р.Г. Современнаука молодеж: социалные ценности и нравственные ориентации [Текст] / Р.Г. Гурова // Педагогика. - 2000. - № 10. -с. 32-41.
8. Дашевская, Л.В. Социалные инициативы студентов как фактор повышения качества подготовки специалиста в вузе [Текст]: автореф. дис. ...канд. психологических наук. / Л.В. Дашевская. - СПб. : [б. и.], 2005. - 35 с.
9. Коджаспирова, Г.М. Педагогический словар [Текст]: для студ. сред,и высш. пед. учеб, заведений / Г.М.Коджаспирова, А.Ю. Коджаспиров. - М.:Изд. Центр ≪Академия≫, 2000. - 176 с.